

MUHAMMAD YUSUF IJODI VA UNING XALQ RUHIYATINI O‘Z SHE’RLARIDA AKS ETTIRISHI

Eshdavlatov Azizbek Ziyodulla o’gli

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Pedagogika va ijtimoiy-gumanitar
fanlar fakulteti Filologiya va tillarni o’qitish (o’zbek tili) yo’nalishi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, Muhammad Yusufning ijodi va she’rlarining milliy birlikni mustahkamlashdagi o’rni haqida tahlil qilinadi. Muhammad Yusuf zamonamizning eng yorqin shoirlaridan biri hisoblanadi. U o’zining ijodi va shaxsiyati bilan adabiyotga katta hissa qo’shgan. Shoirning she’rlari nafaqat adabiyot ixlosmandlarini, balki keng o’quvchilar ommasini ham o’ziga jalb etgan. Uning ijodi insonning ichki dunyosini, milliy qadriyatlarni va ona tiliga bo’lgan muhabbatni chuqur tushunishga yordam beradi.*

Kalit so’zlar: *Muhammad Yusuf, ijod, xalq, shoir, adabiyot, madaniyat, she’r.*

Hamma narsada muhimi ruhdur. Adabiyot ham bundan mustasno emas. Qolaversa, adabiyot inson ruhini chuqur tushunishga va ifodalashga yordam beradi. Ruhning inson hayotidagi o’rni va uning ichki dunyosiga ta’siri haqida gapirganda Muhammad Yusufning ijodiga to’xtalmaslik mumkin emas.

Muhammad Yusuf O‘zbekistondagi eng yosh xalq shoirlaridan biri hisoblanadi. Uning dastlabki she’ri 1976-yilda nashr etilgan. Umrining so’ngiga qadar o’nga yaqin she’riy to’plamning, o’nlab qo’shiqlarning muallifi sifatida kitobxonlar qalbiga kirib ulgurgan. Shoirning ijodidagi oddiylilik, xalqonalik kishini ajablantiradi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov o’z nutqida shoirga tarif berib: “Muhammad Yusuf noyob is’tedod egasi, mehribon, sofdil, mard va kamtarin inson” – deya ulug’lashi ham o’rinlidir. Muhammad Yusuf juda tez og’izga tushadi. “Toshkent oqshomi”, “O‘zbekiston ovozi” gazetalaridagi faoliyati esa uni yana boshqa olamga olib kiradi. Uning tanqidiy yo’nalishdagi “luqma”lari, kichik-kichik qatralari, bir qator maqolalari Maqsad Yaxshiyev nomi bilan gazeta sahifalarida tez-tez ko’zga tashlanadigan bo’ladi. Sal keyinroq u Muhammad Yusuf nomi bilan elga tanilgan [1].

Zamondoshlari shoirni omadli yigit deb bilishgan. Buning sabablaridan biri G’aybulloh Salomday zabardast olim, ulug’ bir inson xonadoniga kuyov bo’lishi bo’lsa ajabmas. Ular ruhan bir-birlariga juda yaqin inson bo’lishgan.

Shoirning rostgo’yligi, halolligi va pokiza qalb egasi ekanligini uning salmoqli bo’lgan ijodidan ham anglash mumkin. Yozganlarida Shoir atrofidagi borki mavjudotni jondan sevdi, qarqarali, nash’u namoli sevdi. O’pay desa “peshonasi yo’q qizg’aldoq” dan tortib, “ko’zi tola yosh jayron”gacha...[3].

Albatta, she’riyat atalmish bu qadimiy gulxan atrofida o’tirganlarning har biri bilganini aytadi. Ammo biz shoirning aytgan har satriga ko’zmunchiq taqib yashasak arziydi. Ijod olamidagi bu qadar nafislik va oddiylilik har qachon ham topilavermaydi. Axir kim

Muhammad Yusufday mustaqillikning ilk ayozli davrlaridayoq “Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston”, deb kurash maydonlariga tusha olgan edi [3]. Yuqorida keltirgan so‘zlarimizni dalillagan holda shoirning she‘rlarini tahlil qilib boramiz. Masalan Shoirning “Xalq bo‘l elim” nomli she‘ridan olingan parchani ko‘rib chiqsak:

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
Qumlar bosib qurimasin daryolarim.
Alpomishga alla aytgan momolarim
Ruhini shod etay desang — xalq bo‘l, elim [2].

Birinchi misrada shoir o‘zining orzu-umidlarini ifodalaydi. “Qadim navolar” jumlasida esa, ajdodlar, ulug‘ shaxslar yoki xalqning qadimiy an‘analari haqida so‘z yuritadi.

“Qumlar bosib qurimasin daryolarim” – misrasida shoir “daryolarim” deb, ayni ona xalqini nazarda tutadi. Bu bilan asrlar davomida shakllangan xalqning tarixini va madaniyatini asrab avaylashga chaqiradi.

“Alpomishga alla aytgan momolarim” –bu misradagi momolar aytgan alla ajdodlaridan olingan hikmatlar-u maslahatlardir.

“Ruhini shod etay desang — xalq bo‘l, elim!” – Shoir, ajdodlarining ruhini shod qilish uchun, xalq bo‘lish va milliy birlikni mustahkamlash kerakligini takidlab o‘tadi.

Shoirning “Ona tilim” she‘rini ham ko‘rib chiqsak:

Bir qarasam har shevangda ming jilolar
Har novdangda, har mevangda ming jilolar.
Qodiriylar, Cholponlar-u, Abdullolar,
Sening qaytgan kuning men tug‘ilgan yilim,
Ona tilim, ey muqaddas Ona tilim [4].

Ushbu she‘rda ona tiliga nisbatan ulkan hurmat va muhabbat aks etgan. “Bir qarasam har shevangda ming jilolar” deb boshlanadigan birinchi qator, har bir so‘z va tilning inson qalbini zabt etadigan kuchini ifodalaydi. Qolgan misralarda esa o‘zbek tili shaxsiyat va madaniyatning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatilgan.

Shoirni vafotidan so‘ng zamondoshlari o‘zlarining suhbatlarida va qo‘lyozmalarida ko‘p eslashadi. Misol o‘rnida O‘zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyevaning ijodidan keltirishimiz mumkin:

Bir arsloni o‘tdi O‘zbekning,
Ohi ko‘kka yetdi O‘zbekning,
Quyosh yig‘la, osmon, aza tut,
Muhammadi ketdi O‘zbekning.
Baland ketdi, shoniga ketdi.
Jannatning ayvoniga ketdi.
Turk yukini yelkalashay deb,
Yassaviyning yoniga ketdi...[3].

Xulosa qilib aytganda shoir umrini chunonon adabiyotga baxshida etganki, biz bu lahzalarni hatto bir onini ham bekarga o‘tgan deyolmaymiz. Uning she‘riyati nafaqat zamonaviy adabiyotda, balki milliy madaniyat va xalq ruhiyatini anglashda ham katta

o‘ringa ega ekanligi bilan ham ajralib turadi. Yozgan she‘rlari insonning ichki dunyosini, til va madaniyatni sevish, ajdodlar va millatga bo‘lgan hurmatni aks ettiradi. Shoirning ijodi uning xalqiga bo‘lgan muhabbatini, mustaqillik g‘ururini, ona tiliga bo‘lgan sadoqatini ta’kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U.Rasulova. Hozirgi adabiy jarayon – Toshkent: “Akademnashr”, 2023.
2. M.Yusuf. Xalq bo‘l, elim – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2005.
3. M.Yusuf. Saylanma – Toshkent: "Sharq", 2015.
4. M.Yusuf. Tanish teraklar – Toshkent: “ Adabiyot va san’at”, 1985.